



## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA O'NLIK KONSENTRIDA MASALALAR YESHISHGA O'RGATISH

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogik instituti Boshlang'ich ta'lif fakulteti 3v-guruh talabasi Usenbaeva Gozzal*

**Annotatsiya:** Maqolada o'quvchilarga o'nlik konsentridagi misollarni va masalalar haqida tushuncha va darsliklarda berilgan o'n konsentriga oid misollar beriladi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'qituvchi, matematika, konsentr, misol, masala, o'nlik konsentri.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari dastlabki maktabga kelgan kunidan boshlab o'n konsentrida misol va masalalarni ishlashni boshlaydilar. Ular o'n konsentrida misol va masalarni hisoblaganda sanoq tayoqchalaridan va ko'birok o'zining qo'l barmoqlaridan foydalanadi. O'n konsentriga 0 dan boshlab 9gacha bo'lgan sonlar kiradi. Demak, ular yechimi 10dan kichik bo'lgan misol va masalalarni ishlaydi. O'n konsentrida misol va masalalarni o'rganishda o'qituvchi oldida turgan asosiy maqsadlar quyidagilardan iborat:

- 1) qo'shish va ayirish amallarining mohiyati bilan tanishtirish:
- 2) hisoblash usullaridan ongli foydalanishni ta'minlash:
  - a) "sonni bo'laklari bo'yicha (birma-bir yoki guruhlab) qo'shish va ayirish" usuli:
  - b) yig'indining o'rinni almashtirish xossasidan foydalanib qo'shish usuli:
  - v) sonlarni ayirishda qo'shish amalidan, ya'ni noma'lum komponentni topishdan foydalanish.
- 3) 10 ichida qo'shish va ayirishni avtomatizmga yetkazish:



Mavzuni o‘zaro bog‘langan bir necha bosqichlarga bo‘lib o‘rganamiz.

1-bosqich. Tayyorgarlik bosqichi: qo‘sish va ayirish amalining aniq mazmunini ochish:  $a+1$  ko‘rinishidagi qo‘sish va ayirish holatlari.

Bu ish 1-10 ichidagi o‘rganishga bag‘ishlangan birinchi darsdanoq boshlanadi. Bunda ikki to‘plamning birlashmasiga oid va to‘liq qismini ajratishga oid mashqlar yetarlicha bajariladi. Nomerlashni o‘rganish jarayonida 1-o‘nlikdagi har bir son o‘zidan oldingi songa 1 ni qo‘sishdan, yoki o‘zidan keyingi sondan 1 ni ayirishni hosil qilish, shu bilan sonlar qatorini hosil qilish ko‘nikmasi singdiriladi. Umuman  $a+1, a-1$  ko‘rinishidagi hollar uchun jadval tuziladi. Birinchi darsdanoq  $1-1, 0+1=1$  ko‘rinishidagi amallarga to‘xtaladi.

2-bosqich.  $a+2, a+3, a+4$  ko‘rinishidagi hollar uchun hisoblash usullari bilan tanishish. Bu holatlarning har biri uchun taxminan bir xil quyidagi reja tuziladi.

1) tayyorgarlik sifatida sonlarni 2 ta qo‘shiluvchiga ajratish va qo‘sish hamda jadvallari takrorlanadi:

2) Sonni bo‘linmalar bo‘yicha qo‘sish va ayirish usullari bilan tanishish:

3) yangi bilimlarni mustahkamlash va uni qo‘llash:

4) qo‘sish va ayirish jadvallarini ongli ravishda eslab qolishga oid ishlar.

3-bosqich.  $a+6, a+7, a+9$  ko‘rinishidagi hollar uchun hisoblash usullari bilan tanishish. Bu ishlarni bajarish jarayonida ham avvalgidek bajarilib, qo‘shiluvchi, yig‘indi so‘zлari bilan tanishadilar. Bunda  $4+2=6$  misolida 4-qo‘shiluvchi, 2-qo‘shiluvchi, 6-yig‘indi ekanligi tushuntiriladi.  $6-2=4$  misolida 6-kamayuvchi, 2-olinuvchi, 4-ayirma ekanligi haqida aytildi. O‘n konsentridda faqat arifmetik amallardan qo‘sish va ayirish amali haqida aytilib o‘tiladi. Ko‘baytirish va bo‘lish amali haqida 100lik konsentridda tushuntiriladi.



4-bosqich. a-5, a-6, a-7, a-8 ko‘rinishdagi hollar uchun hisoblash usullari bilan tanishish.

Bunda hisoblash usullari yig‘indisi bilan qo‘shiluvchilar orasidagi bog‘lanishlarni bilishga asoslangan.

Bunda yig‘indi va qo‘shiluvchilardan biri orqali ikkinchi qo‘shiluvchini topishga asoslangan. Qo‘shish va ayirishni o‘rganishga doir tayyorgarlik ishi nomerlashni o‘rganish birinchi darsdanoq boshlanadi. Bunda yuqorida aytib o‘tganimizdek, natural ketma-ketlikdagi sonlarning hosil bo‘lish hollari ham qaraladi. Bu amallarning natijalarini topishda to‘plamlar ustida ko‘p marta amallar bajarib, shuningdek, misollar yechishda o‘quvchilar to‘plamlarni birlashtirish amallari qo‘shish amaliga, ularning maxrajini ajratish, ayirish amaliga mos kelishini aniqlaydilar. O‘quvchilar nomerlashni o‘rganishning oxiriga borib o‘nlikdagi istalgan songa birni qo‘shish yoki ayirish bilan hosil qilish usulini puxta o‘rganib borishlari va bu usuldan foydalanib (ketma-ket) sanash bilan emas, balki birni qo‘shish va ayirish bilan ishlashlari kerak. Bolalar asta-sekin kuzatishlarini umumlashtiradilar va quyidagi xulosaga keladilar:

Songa birni qo‘shish - bu shu sondan keyingi keluvchi sonni aytish hisoblanadi. Sondan 1 ni ayirish shu sondan oldin keluvchi sonni aytish hisoblanadi. Alovida ajratilgan darsda o‘rganilgan barcha  $a+1$  holatlar tizimlashtiriladi. O‘qituvchi rahbarligida bolalar "1 ni qo‘shish" va "1 ni ayirish" jadvallarini tuzadilar va ularni yod oladilar.

Bir tomondan, hisoblash usullarining o‘xshashligini, ikkinchi tomondan qo‘shish va ayirish amallarining qarama-qarshi xarakterini ko‘rsatish uchun "2 ni qo‘shish" va "2 ni ayirish," xuddi shuningdek keyinroq "3 ni qo‘shish" va "3 ni ayirish" hamda "4 ni qo‘shish" va "4 ni ayirish" hollari bir-biri bilan taqqoslab bir vaqtida o‘rganiladi.



Hisoblash qobiliyatları ustida ish quyidagi reja bo'yicha olib boriladi:

- 1) Qo'shish va ayirish usullari bilan tanishish;
- 2) Bu usullarni qo'llashga va hisoblash malakalarini egallahsga oid mashqlar;
- 3) Jadvallar tuzish va ularni yod olish, hisoblash ko'nikmalarini egallahsh, "2 ni qo'shish va ayirish"ni o'rganish.

O'n konsentridda 1-sinf darsligida quyidagicha masalalar berilgan.

1-masala.

Ko'lda sakkizda o'rdak bore di. Uchta o'rdak suvdan chiqib ketti. Ko'lda nechta o'rdal qoldi?

Yechilishi:  $8-3=5$

Javobi: Ko'lda beshta o'rdak qolgan.

2-masala.

Uchta banan va beshta olma bor. Olmalar bananlardan qanchaga ko'b? Bananlar olmalardan qanchaga oz?

Yechilishi:  $5-3=2$

Javobi: olmalar bananlardan 2ga ko'b, bananlar olmalardan 2ga oz.

3-masala.

Ko'chada yeti uy berilgan. Polatning uyi shaptan to'rtinchi bo'lsa, o'ngdan nechichi bo'ladi?

Yechimi: 1,2,3,**4**,5,6, qora bilan berilgan joyda Polatning uyi bor. Demak, o'ngnan ham to'rtinchi uy Po'latniki bo'ladi.

Javob: to'rtinchi uy



4-masala.

Muslimaning onasi bozordan 7 mevalar sotib oldi. Ulardan ikkitasi olma bo‘lsa nechtasi anor mevasi bo‘ladi?

Yechimi:  $7-2=5$

Javobi: 5ta anor mevasini olgan

5-masala.

Javonda 6 kitob bor. Akmal unnan ikkitasini oldi. Javonda nechta kitob qoldi?

Yechimi:  $6-2=4$

Javobi: 4 ta kitob qoldi.

Xulosa: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘n konsentridda misol va masalarni yechishga o‘rgatishta ko‘rgazmali qurollardan foydalanish katta ahamaiyatga ega. Chunki ular eshitgandan ko‘ra ko‘rgan narsalarini tez eslab qoladi. Oquvchilarga o‘n konsentrini tushuntirishda befarq bo‘lmashligimiz kerak. O‘n konsentridda narsalarni hisoblashni yaxshi o‘rganmasa keyingi konsentriddagi masalalarni yechishga qiynalib qoladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jumaev M.E, Xojanov B.K, Baynazarov T.A Matematika hám onı oqıtıw metodikası –Sabaqlıq: Tashkent “Tafakkur avlod” 2021-jıl 384-bet
2. Orinbaev.L matematika 1-klass sabaqlıq.Tashkent:Respublikalıq bilimlendiriw orayı . 2021, 160-bet